


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

**2023- yilning yanvar-sentabr oylarida  
Toshkent viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (YAHM)  
(joriy narxlarda, mlrd. so‘m)**

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning hajmi joriy narxlarda 76383,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 3,6 %ga o‘sdi. Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi 2022- yil yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,1 %ni tashkil qildi.


*Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsiyonal birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘silgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.*

2022-2023- yil yanvar-sentabr oylari uchun Yalpi hududiy mahsulot fizik hajmi va deflyator indeksi dinamikasi quyidagi ma’lumotlar bilan tavsiflanadi (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan %da).




**Yanvar-sentabr oylarida Yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)

**2023-yil yanvar-sentabr oylarida**



**2022-yil yanvar-sentabr oylarida**




Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari Yalpi hududiy mahsulot o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 102,1 % (yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi – 21,7 %), sanoat – 103,6 % (46,5 %), qurilish – 107,3 % (5,8 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 107,1 % (6,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 104,9 % (4,9 %) hamda boshqa xizmat tarmoqlari – 102,8 % (14,5 %)ni tashkil etdi.


Aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi hududiy mahsulot 25 335,5 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 %ga o‘sdi.

O‘tgan yilning shu davrida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 22 831,4 ming so‘mni va 104,4 %ni tashkil qilgan.

**Aholi jon boshiga hisoblangan  
Yalpi hududiy mahsulot hajmi  
(joriy narxlarda, ming so‘m)**



**Aholi jon boshiga hisoblangan  
Yalpi hududiy mahsulot o‘sish sur’atlari  
(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan %da)**



**Ma’lumot uchun:** Respublika bo‘yicha 2023-yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan Yalpi ichki mahsulot hajmi 20 679,6 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 3,6 %ga o‘sdi. 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 17 957,0 ming so‘mni va 104,0 %ni tashkil qilgan.

**Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishda  
kichik biznesning yalpi qo'shgan qiymati hajmi  
(mlrd. so'mda)**




**2022- yil                  2023- yil  
yanvar-sentabr      yanvar-sentabr**

Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarishda kichik tadbir 2023- yilda kichik tadbirdorlikning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 48,8 %ni tashkil etdi.

Kichik tadbirdorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan bog'liq.

**Kichik biznesning Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi**


*(yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan)*



**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha  
Yalpi hududiy mahsulotning ishlab chiqarish hajmi va o’sish sur’atlari**

	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>Fizik hajm indeksi, %da</i>
	<i>2022- yil yanvar-sentabr</i>	<i>2023- yil yanvar-sentabr</i>	
<b>I.Yalpi hududiy mahsulot - jami</b>	<b>67 544,3</b>	<b>76 383,9</b>	<b>103,6</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	64 836,4	73 479,2	103,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	2 707,9	2 904,7	103,1
<b>II.Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati</b>	<b>64 836,4</b>	<b>73 479,2</b>	<b>103,6</b>
<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	<b>14 096,4</b>	<b>15 967,2</b>	<b>102,1</b>
<b>Sanoat (qurilishni qo‘shtigan holda)</b>	<b>34 768,5</b>	<b>38 460,2</b>	<b>104,0</b>
sanoat	31 200,4	34 198,5	103,6
qurilish	3 568,1	4 261,7	107,3
<b>Xizmatlar</b>	<b>15 971,5</b>	<b>19 051,8</b>	<b>104,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	4 027,6	4 827,0	107,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	3 000,4	3 590,7	104,9
boshqa xizmat tarmoqlari	8 943,5	10 634,1	102,8

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi  
(jamiga nisbatan % da)**




Yuqorida keltirilgan diagrammada ko'rinish turibdiki, Xizmatlar sohasining Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 2022- yildagi 24,7 %dan 2023- yilda 26,0 %ga, qurilish tarmog'ining ulushi 5,5 %dan 5,8 %ga oshdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 21,7 %dan 21,7 %ga o'zgarishsiz, Sanoat sohasining Yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 2022- yildagi 48,1 %dan 2023- yilda 46,5 %ga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulot tarkibida jami xizmatlar sohasining ulushi 26,0 %ga to‘g‘ri keldi, jumladan savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 6,6 %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa - 4,9 %ni, boshqa xizmat tarmoqlari - 14,5 %ni tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan)**



**Ma’lumot uchun:** 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yalpi hududiy mahsulot hajmida jami xizmatlar ulushi 24,7 %ga to‘g‘ri kelgan, jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 6,2 %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa - 4,6 %ni, boshqa xizmat tarmoqlari - 13,9 %ni tashkil etgan.

**2023- yil yanvar-sentabr oylarida  
Yalpi hududiy mahsulot o'sishida tarmoqlarning hissasi  
(jamiga nisbatan % da)**




2022- yil yanvar-sentabr oylarida Yalpi hududy mahsulot o'sishida Xizmatlar sohasining hissasi 1,0 %ni tashkil qildi. Jumladan, Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hissasi 0,4 %ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa - 0,2 %ni, boshqa xizmat tarmoqlari - 0,4 %ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida Yalpi hududiy mahsulot o'sishida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining hissasi – 0,7 %ni, sanoat – 3,3 %ni, qurilish – 0,3 %ni, xizmatlar – 1,6 %ni, mahsulotlarga sof soliqlar – 0,3 %ni tashkil etgan.

**Yalpi hududiy mahsulotning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)**

2023- yil yanvar-sentabr oylarida Yalpi hududy mahsulot deflyatori indeksi 2022- yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 109,1 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 114,4 % hamda qurilishda – 111,3 % qayd etildi.



## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Yalpi hududiy mahsulot** – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

**Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot** – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o‘rtacha aholisi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

**Yalpi qo‘shilgan qiymat** – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to‘laligicha iste’mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste’mol) o‘rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

**Mahsulotlar uchun soliqlar** – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

**Mahsulotlar uchun subsidiyalar** – davlat budgetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya’ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to‘lanadigan mablag‘lar (subsidiyalar).

**Mahsulotlar uchun sof soliqlar** mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o‘sish sur’ati)** doimiy narxlarda, ya’ni o‘tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o‘tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

**Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi** - iqtisodiyotda narxlarning o‘rtacha o‘zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.